

IBORALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TARJIMA JARAYONIDAGI MUAMMOLAR

Norbo'tayeva Shohista Otabek qizi

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15245523>

Annotatsiya. Ushbu maqolada iboralarining o'ziga xos xususiyatlari va tarjima jarayonidagi muammolar haqida bahs ketadi. Iboralarni bir tildan boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmashligi, ularning tarjima qilinayotgan tildagi muqobili keltirilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: frazeologik va leksik birliklar, badiiy obraz, tarjima uslubi, samarali tarjima, ingliz va o'zbek tillaridagi birliklar.

ХАРАКТЕРИСТИКИ ФРАЗЫ И ПРОБЛЕМЫ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

Аннотация. В статье рассматриваются специфические особенности фраз и проблемы, возникающие в процессе перевода. Говорят, что выражения нельзя перевести с одного языка на другой дословно, а можно перевести их эквиваленты на языке перевода.

Ключевые слова: фразеологические и лексические единицы, художественный образ, стиль перевода, эффективный перевод, единицы на английском и узбекском языках.

CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTATIONS AND PROBLEMS IN THE TRANSLATION PROCESS

Abstract. This article discusses the characteristics of idioms and problems in the translation process. It discusses the fact that idioms cannot be translated word for word from one language to another, and their equivalents in the language being translated should be given.

Keywords: phraseological and lexical units, artistic image, translation style, effective translation, units in English and Uzbek.

Frazeologik birliklar ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat aholisining tasviri, yashash tarzi, urf -odatlarini o'zida aks ettiruvchi til birligi hisoblanadi.

Tilshunoslikning iboralarni o'rganuvchi bo'limi bu frazeologiya hisoblanadi va u boshqa bo'limlarga nisbatan yangidir. Bugungi kunda bu soha rivojlanmoqda. Olimlar turli xil ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib bormoqda.

Iborani alohida fan sifatida o'rganish bir necha asrlar oldin boshlangan. Xususan, rus tilshunos olimlari XVII asrdan boshlab iboralarni tarjima qilishdagi ba'zi muammolarga qiziqqa boshlashgan. Bulardan biri M.V. Lomonosov rus adabiy tili lug'atini tuzib, bunda so'zlar bilan birgalikda "idomatizmlar" "xalq maqollari" va iboralar ham o'z ifodasini topgan bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi. Frazeologik birliklar badiiy asarlarda qahramonlarning ta'svirini ta'svirlash uchun qo'langanligi, ular badiiy adabiyot uchun xarakterli deb hisoblanadi.

Ammo, A.V Fedorovning ta'kidlashicha, nutq vositalarining bu kategoriyasi faqatgina badiiy adabiyotning xususiy mulki hisoblanmaydi. Chunki bu birliklarni biz ilmiy va publitsistik uslublarda ham foydalanamiz.

Ingliz tili adabiyotida XX asrning 60-80 yillarida va jahon adabiyotida ham shu vaqtlarda iboraga bo'lgan qiziqishlar ortib bordi. Umuman, aytganda "ibora" atamasini tilshunoslikga shvesariyalik olim Sharl Balli o'zining "Fransuz stilistikasi" (1909-yil) nomli asarida keltirgan.

Bu asarda frazeologiya ma'nolariga bag'ishlangan boblar kiritilgan. Biroq Sharl Balli bu atamani fanga olib kirgan bo'lsa ham iboraning keng ko'lamli ma'nolari G'arb va Yevropa adabiyoti va tilshunosligida ochilgan.

Frazeologiya (yun. phrasis-ifoda, ibora va logiya ta'limot):

a) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotini tekshiruvchi bo'lim;

b) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui;

Shu o'rinda iboralarning o'ziga xos bo'lgan jihatlarini sanab o'tish maqsadga muvofiq.

- turg'un birikma
- ikki va undan ortiq so'slardan iborat bo'ladi
- d) ma'nosi bitta so'zga teng bo'ladi
- e) obrazli va emotsional ruhda bo'ladi
- f) sintaktik jihatdan bitta bo'lak sifatida qaraladi
- g) bu birikma nutq jarayonida hosil bo'lmaydi u lisonda bo'ladi
- h) so'z birikmasi yoki gapga teng bo'ladi
- i) ko'pincha ko'chma ma'noda bo'ladi

A.Mamatov o'zbek frazeologiyasining shakllanishi jihatdan o'rgangan va o'z navbatida uni to'rt qismga bo'lagan;

1 Shaxs faoliyati va pisixikasi bilan bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar; bag'ri qon, bahri dili ochildi va hokoza.

2 Kasb -korga bog‘liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar; bo‘zchining mokisidek va hokoza.

3 Hayvonlarga xos obrazlar asosida shakllangan frazeologizmlar; quyonni chizmoq, to‘ygan qo‘zi, ammamning buzog‘day, kuygan tovuqday va hokoza.

4 Dinga bog‘liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar; Xudo ko‘tarsin, payg‘ambar hassasi bilan turgan kabi.

Turg‘un birikmalarni erkin birikmalarga qaraganda tarjima qilish ancha mushkilroq sababi turg‘un birikmani nutqda qo‘llayotganda o‘z va ko‘chma obrazli kabi turlarini farqlab olish kerak. Boshqa tildagi asarlarni tarjima qilishda bu omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima nazriyasi bo‘yicha nashr etilgan adabiyotlarda bunday birliklarni tarjima qilishni beshta asosiy turi borligi aytib o‘tilgan. Ullar quydagilardan iborat;

- obrazni qanday bo‘lsa shundayligicha saqlash;
- obrazni qisman o‘zgartirish;
- obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish;
- tarjimada butunlay obrazni saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish;
- odatda universal yoki internatsional tarjimada to‘liq saqlanadi;

Shuni ta’kidlash joizki, tarjimon muallifning o‘rnidan qalam tebratar ekan, demak u muallifning uslubini aks ettiradi. Agar ma’lum bir asrni turli xil bo‘lgan o‘n kishi tarjima qilsa, tarjima qilingan asar har biridan tamomila farq qiladi.

Buning sababi shuki har bir tarjimonning o‘ziga xos bo‘lgan uslub yo‘nalishi o‘z izi bor.

Masalan, A. Qahor A. S. Pushkinning “Kapitan qizi“, Gogolning “Revizor“ va “Uylanish“ kabi bir necha asarlarini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilar ekan, asarlarda A. Qahorning uslubini anchayin sezilarli va L. N. Tolstoyning o‘zbekchaga o‘grilgan romanlarida Mirzakalon Ismoilning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari bilinib turadi. Bu bilan tarjimon o‘z uslubini ko‘rsatadi degan fikrni bermaydi.

A. Qodiriy o‘z romanlarida maqol iboralar va matallardan keng foydalangan. Asarning turli tarjimalarida bu maqollarning qanday o‘zgarganini tahlil qilish muhim. Ba’zan maqolning bevosita tarjimasi ishlatiladi, lekin bu har doim ham tushunarli yoki tabiiy bo‘lavermaydi. Ba’zi maqollar boshqa tilning madaniyati va tiliga mos keladigan analog bilan almashtiriladi.

Maqolning asosiy ma’nosini saqlagan holda, uni tarjima tilining uslubiga moslashtirish.

Misol sifatida “Birovning itini siylasang, seni tishlaydi” (“Mehrobdan Chayon”) maqolini olaylik.

Ingliz tiliga bevosita “If you pet someone else’s dog, it will bite you” deb tarjima qilish mumkin, lekin bu tabiiy jaranglamaydi. Inglizcha ekvivalent sifatida “No good deed goes unpunished” (Yaxshilik jazosiz qolmaydi) degan maqol yanada muqobil hisoblanadi.

O‘tkir Hoshimovning asarlarida ham biz ko‘p ibora maqol matallarga duch kelamiz.

Masalan, ”Ikki eshik orasi“ romanida “Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u” maqolini boshqa bir tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilsak, ingliz tilida uning tarjimasi “Fifteen of the moon are bright, fifteen are dark“ degan ma‘no keladi ammo bu ibora biz xohlagan chuqur ma‘noni bermaydi. Muqobil sifatida ingliz tilida “Every rose has its thorn“ (har bir gullanayotgan gulda tikan bo‘ladi, ya‘ni yaxshi narsalar ham ba‘zida yomon tomonlarga ega bo‘lad.) iborasi mavjud bu ibora yuqoridagi iboraning ma‘nosini bera oladi.

Ingliz tilida iboralar uzoq vaqt davomida mavjud bo‘lgan, chunki til tarixidan kelib chiqishi rivojlanishi va tarxiy voqealar davomida iboralar shakllangan va paydo bo‘lgan.

Masalan, “It costs an arm and a leg“ bu iborani tarjima qilsak“ Bitta qo‘l, bitta oyoqa tushdi“ degan ma‘noni bildiradi. Ma‘lumki, iboralar ko‘chma ma‘noda keladi. Yuqoridagi ibora ham ko‘chma ma‘noda qo‘langan. Bu ibora “qimmat” leksemasiga teng. Bu iboraning muqobili sifatida biz o‘zbek tilida “Otning kallasidek“ ya‘ni bu ham “qimmat“ degan ma‘noni beradi.

Shunday qilib yuqoridagi, “It costs an arm and a leg“ iborasi tarxiy voqea sababli vujudga kelgan. Ya‘ni ingliz askarlari katta jangga borgan va bu jangda askarlarning ko‘pchiligi qo‘llaridan oyoqlaridan ayrilgan va bu holat ularga qimmatga tushgan. Shundan buyon bu ibora o‘ylagan narxidan ko‘ra qimmat ekanligida yoki biror narsa voqea qimmatga tushganda aytiladi.

Ingliz tilidagi “Wipe the floor with someone“ iborasini o‘zbek tiliga so‘zma so‘z tarjima qilsak, “kimdir bilan polni yoki yerni artish“ degan ma‘no kelib chiqadi. Bu degani kimdir bilan birgalikda polni yoki yerni artish degani emas. Ibora sifatida qaraydigan bo‘lsak, kimdirning ustidan g‘laba qozonish, osonlikcha uni mag‘lub qilish degani. Bu iborani to‘liq tushinish uchun bunga mos bo‘lgan iborani o‘zbek tilida topishimiz kerak. Demak bu o‘zbek tilidagi “Burnini yerga ishqaladi“ iborasini tanlasak bo‘ladi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki to‘g‘ridan to‘g‘ri qilingan tahlillar har doim ham biz xohlagan ma‘noni keltirib bermaydi ya‘ni tarjimani samarali qilmaydi. Har bir xalqning tili, madaniyati, hayot tarzi turlichadir shu sababli bir tildan ko‘chirilgan ibora boshqa bir tilga ko‘chirilganda asliy ma‘nosini qisman yo‘qotadi yoki butunlay boshqa ma‘noga olib borib noaniqlikni keltirib chiqadi. Shu sababli tarjimon analogik ekvivalentni maqollar izlash yoki erkin tarjima qilish usullarini qo‘lash kerak. Bundan tashqari, milliy kolorit va badiiy uslubni saqlash tarjimada juda muhim hisoblanadi.

Badiiy jihatdan noto‘g‘ri tarjima qilingan iboralar maqollar matallar asarning ohangini o‘zgartirib yuborishi, qahramonlarning xarakterini suniylashtirib yoki g‘alizlashtirishi va asarning estetik xususiyatiga salbiy ta‘sirini o‘tkazishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarning tarjimasi faqat lingvistik jarayon emas, balki madaniy jarayon hamdir. Tarjimon nafaqat so‘zlarning tarjimasini emas, balki ularning ortidagi yashirin ma‘nosini tarxiy va madaniy kontekstni ham to‘liq yetkazib berish kerak.

Yuqoridagi misollar orqali shuni anglash mumkinki, samarali tarjima so‘zma-so‘z emas, balki mazmun va ruhni (ya‘ni hissiy holati) yetkazishga asoslangan bo‘lishi lozim. Bu esa o‘z navbatida, tarjimonning ijodiy mahorati til ko‘nikmalari va madaniyatlararo tafakkurini talab qiladi.

REFERENCES

1. O.Sh.Sattorova. "Mehrobdan chayon" asarining arab tiliga tarjimasida milliy xos so'zlarning ifodalanishi. Vol. 5 No. 2 (2025): Ilm fan xabarnomasi. -B. 830-835.<https://worldlyiournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/8681>.
2. *O‘TIL.-O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1-,2-,3-,4-,5-jildlari. T.: 2006-2008
3. Begmatova B. M., Mutalova G. S., Kasimova S. S. The Direct Object And Its Use In Arabic Language //Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal. - 2023. - T. 10. - №. 1. - C. 3601-3609.
4. Mamatov A. O‘zbek tilida frazeologizmlarning shakillanishi masalalari - Toshkent: Tafakkur avlodi nashriyoti, 2020.
5. Salomov G‘. Til va tarjima .-Toshkent " Fan " nashriyoti, 1966.
6. O‘tkir Hoshimov. “Ikki eshik orasi”. –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1986 (3-796-betlar).